

PUDRAT SHARTNOMASI

2022 y. «28» 3

2022-222-3-45-XT-son

G'allaorol sh.

G'allaorol tumani Xalq Talimi Bo'limi (keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi boshligi: A.Suyunov va «KOZIMBEK GOLDEN STROY» XK keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi korxonalar rahbari A.Qoshmurodovlar mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1.Shartnoma predmeti

1.1. Pudratchi o'z zimmasiga buyurtmachining topshirig'iga ko'ra mazkur shartnomaning 1.2.-bandida ko'rsatilgan ishlarni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa ishlarning natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Pudratchi keyingi o'rinlarda "Ishlar" deb ataladigan quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini oladi:

G'allaorol tuman XTBga qarashli 56-umumta'lim maktabi binosini joriy ta'mirlash.

1.3 Pudratchi ishlarni o'zining materiallaridan, o'zining asbob-uskunasida va o'zining instrumentlari bilan bajaradi.

1.4 Ishlarni bajarish muddati: Buyurtmachi tomonidan dastlabki 30% avans mablag'i ajratilgan kundan boshlab 30 kun ichida amalga oshiradi, kolgan 70%ni bajarilgan ishlar tugrisidagi dalolatnoma imzolagandan so'ng 10 bank ish kun ichida qabul qilish dalolatnomasi, xisob-faktura v.b asosida to'laydi.

1.4.1. Ishlar buyurtmachi yoki uning vakolatli vakili tomonidan ishlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolagandan keyin bajarilgan deb hisoblanadi.

2. Majburiyatlarning bajarilishi muddati

2.1. Buyurtmachi pudratchiga shartnoma umumiy qiymatining 30 %i miqdorida bunak tulovlarini amalga oshiradi. Ishlarni qabul qilishda aniqlangan nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish ishlari to'liq hajmda bajarilgandan so'ng buyurtmachiga bajargan ishlar uchun oxirgi, uzil-kesil, hisob-kitobni amalga oshiradi.

2.2 Mazkur shartnoma G'aznachilik organlarida ro'yxatdan utgandan sung kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

3. Taraflarning huquq va majburiyatlari

3.1. Pudratchining majburiyatlari:

3.1.1. Ishlarni lozim bo'lgan sifatda bajarish.

3.1.2. Ishlarni mazkur shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan muddatda bajarish.

3.1.3. Ob'ektga loyixaga binoan zarur bulgan materiallarni, konstruksiyalarni, butlovchi ashyolarni yetkazib berish va ularni qabul qilish, tushirish, taxlash hamda saqlashni amalga oshirishi;

3.1.4. Ushbu shartnoma buyicha ishlarni bajarish uchun jalb qilinadigan maxsus tashkilotlar bilan subpudrat shartnomalarini tuzgani tug'risida buyurtmachiga axborot berishi va u tomondan ishlarning bajarilishi yuzasidan nazoratni ta'minlashi;

3.1.5. Ishlarning natijasini buyurtmachiga topshirish.

3.1.6. Agar pudratchi ishlarni bajarish jarayonida shartnoma shartlaridan ishlarning sifatini yomonlashtirishga olib keladigan chetga chiqishga yo'l qo'ygan bo'lsa, buyurtmachining talabiga binoan aniqlangan barcha kamchiliklarni 10 kun ichida tekinga bartaraf etish.

3.1.7. Texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va ob'ektni qo'riqlash bo'yicha zaruriy chora-tadbirlarning bajarilishini ta'minlashi;

3.1.8. Ishlarni shaxsan bajarish.

3.2. Pudratchi quyidagi huquqlarga ega:

3.2.1. Buyurtmachi tomonidan mazkur shartnomaning 3-bandida ko'rsatilgan hak to'lash majburiyati bajarilmaganda, pudratchi ishlarning natijasini ushlab turish huquqiga ega.

3.3. Buyurtmachining majburiyatlari:

3.3.1. Pudratchidan ishlar tugallanganligi haqida xabarnoma olgandan keyin 5 kun ichida yoki mazkur shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan muddat tugaganda, ishlarning natijasini ko'rib chiqish va qabul qilish, ishlarning natijasini yomonlashtiradigan shartnomadan chetga chiqishlar yoki ishlardagi boshqa kamchiliklar aniqlanganda, bular haqida pudratchiga darhol xabar berish.

3.3.2. Ishlarning natijalarini qabul qilgan paytdan mazkur shartnomaning 3-bandida ko'rsatilgan hisoblashishlar tartibi bo'yicha ishlar uchun haq to'lash.

3.4. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

3.4.1. Har qanday vaqtda pudratchining faoliyatiga aralashmagan holda u tomonidan bajariladigan ishlarning borish jarayoni va sifatini tekshirish.

3.4.2. Buyurtmachi ish natijasi o'ziga topshirilgunga qadar istagan vaqtda shartnomadan voz kechib, belgilangan bahoning buyurtmachi shartnomani bajarishdan voz kechganligi to'g'risidagi xabarnoma olingunga qadar bajarilgan ishlar qismiga mutonosib qismini pudratchiga to'lash. Bunda burtmachi pudratchiga shartnomaning bekor qilinishi tufayli yetkazilgan zararni bajarilgan ishning bahosi bilan hamma ish uchun belgilangan baho o'rtasidagi farq doirasida to'lashi ham shart.

4.Shartnomaning bahosi va hisoblashishlar tartibi

4.1. Mazkur shartnomaning bahosi **125 297 000.00** (bir yuz yigirma besh million ikki yuz to'qson yetti ming) so'mni tashkil qiladi.

4.2. Buyurtmachi tomonidan pudratchiga shartnoma bahosini to'lash bajaruvchining mazkur shartnomada ko'rsatilgan hisob-kitob hisobvarag'iga pul mablag'larini ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

5.Taraflarning javobgarligi

5.1. Pudratchi mazkur shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan ishlarni bajarish muddatini buzganligi uchun buyurtmachiga shartnoma summasidan 0,4 % miqdorda jarima va har bir kechiktirilgan kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

5.2. Bajarilgan ishlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi pudratchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

5.3. Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan taraflarning javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiluvchi fuqarolik qonunchiligi me'yorlariga muvofiq qo'llanadi.

5.4 Neustoyka to'lash taraflarning ular oldida turgan majburiyatlarini bajarishdan yoki shartlarning buzishini bartaraf etishdan ozod etmaydi.

6. Fors-major xolatlari

6.1. Hech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. (Urush e'lon qilinishi yoki boshlanishi, fuqarolar tartibsizligi, epidemiya, embargo, yer qimirlashi, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar shular jumlasidandir.)

6.2. Bartaraf kilib bulmaydigan kuchlarning mavjudligi yoki amalda davom etayotganligini O'zbekiston Respublikasi Hukumatining shunga oid qarorlari yoki boshqa vakolatli organlar tomonidan berilgan guvoxnomalari uning yetarli darajadagi tasdig'i bo'lib hisoblanadi.

6.3. O'z majburiyatini bajarmagan taraf shartnoma buyicha majburiyatni bajarishga uning ta'sir ko'rsatishi yoki monelik qilishi to'g'risida boshqa tarafga imkon qadar tezda xabar berishi lozim.

7.Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Mazkur shartnomani bajarishda yuzaga keladigan nizolar va kelishmovchiliklar taraflar o'rtasida imkon qadar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

7.2. Nizolarni taraflarning muzokaralari yo'li bilan hal etish imkoni bo'lmagan taqdirda, taraflar kelishmovchiliklarni bartaraf etish borasida qonunchilikda ko'zda tutilgan sudgacha bo'lgan jarayonlarni amalga oshirilganlaridan so'ng ularni Jizzax shahrida joylashgan Jizzax viloyat iktisodiy sud tomonidan ko'rib chiqishga topshiradilar.

8.Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi

8.1. Ushbu shartnomaga har qanday kiritilgan qo'shimcha va o'zgartishlar yozma ravishda rasmiylashtirilib, har ikkala taraf imzolaniib, G'aznachilik organlarida ro'yxatdan utgandan sung haqiqiy kuchga ega bo'ladi.

8.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor kilish taraflarning kelishuvi buyicha yoxud O'zbekiston Respublikasining amaldagi Fuqarolik kodeksi va qonun xujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha, yetkazilgan zararlarni qoplash bilan amalga oshirilishi mumkin.

8.3. Buyurtmachi quyidagi hollarda shartnomani bekor kilishga haqli:

-Pudratchining aybi bilan ishlarning borishini sustkashlik bilan tuxtatib turilishi, ya'ni ushbu shartnomadagi ishlarning tamom bo'lish muddati bir oydan ko'pga oshib ketganda;

-Pudratchining shartnoma shartlarini buzishi natijasida loyihada ko'rsatilgan ishlarning sifati pasayganda.

8.4. Pudratchi qo'yidagi hollarda shartnomani bekor qilishga hakli:

-Buyurtmachi tomonidan pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablar buyicha qurilish-montaj ishlarining borishini bir oydan oshadigan muddatga to'xtatib turganda;

-Buyurtmachi tomonidan keyinchalik ishlarni moliyalash imkoniyati yo'qotilganda.

8.5. Buyurtmachi va pudratchining birgalikdagi qarori buyicha shartnoma bekor kilinganda, buyurtmachiga tugatilmagan qurilish topshiriladi, buyurtmachi esa pudratchiga ular tomonidan aniqlangan bajarilgan ishlarning hajmi kiymatini tulaydi.

8.6. Shartnomani bekor kilishga qaror kilgan taraf boshqa tarafga yozma xabarnoma yuboradi.

9.Yakuniy qoidalar

9.1. Mazkur shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar, ular faqat yozma shaklda tuzilib, taraflarning bunga vakolatli vakillari tomonidan imzolaniib, G'aznachilik organlarida ro'yxatdan utgandan sung haqiqiy hisoblanadi.

9.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzildi.Ikkala nusxa aynan bir xil va teng kuchga ega.Taraflarning har birida mazkur shartnomaning bir nusxasi mavjud.

9.3 Shartnomaga ilova:Tulov jadvali,Tanlov bayoni,Yurist xulosasi,Smeta va ekspertiza xulosasi.

10. Taraflarning manzillari va bank rekvizitlari

«Ijrochi»

«KOZIMBEK GOLDEN STROY»
XK

(Pudratchi tashkilot nomi)
Manzil: G'allaorol tumani

tel: 93 824 46 77
X/R: 202080009055062892001

Bank: Mikrokreditbank Gallaorol
INN: 306047782
MFO: 00142

IFUT: 0110



Rahbar
(lavozim) imzo

A.Qushmuradov
(F.I.Sh)

M.O'.

«Buyurtmachi»

G'allaorol tumani Xalq Talimi Bo'limi

(budjetdan mablag' oluvchining nomi)
Manzil: Gallaorol t G.Gulom MFY .

tel: 72-432-23-75
sh/h* 100022860082097092100075130.
Bank nomi: Toshkent sh Markaziy bank Bosh
Boshqarmasi
MFO: 00014. STIR: 201030724.
IFUT: 97600.

G'aznachilik bo'linmasi nomi

O'z.Res. Moliya vazirligi yagona G'azna xisob
varag'i

G'azna h/v: 23402000300100001010.
MFO: 00014.

g'aznachilik bo'linmasi STIR: 901422919.

Raxbar:  Suyunov
(lavozim) imzo



Ғаллаорол тумани халқ таълими

WG47483341

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

1. Loyihaning turi: Shartnoma.

2. Loyihaning nomi: "Pudrat shartnomasi"

G'allaorol tumani Xalq ta'limi bo'limi (keyingi o'rinlarda **"Buyurtmachi"** deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi boshligi: A.A.Suyunov va «**KOZIMBEK GOLDEN STROY**» XK keyingi o'rinlarda **"Pudratchi"** deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi korxonah rahbari A.Qoshmurodovlar G'allaorol tuman XTBga qarashli 56-umumta'lim maktabi binosini joriy ta'mirlash to'g'risida.

Shartnomaning umumiy summasi: **125 297 000. 00** (bir yuz yigirma besh million ikki yuz to'qson yetti ming) so'mni tashkil qiladi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.


Loyiha G'allaorol tuman xalq ta'limi bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan elektron tizim orqali xulosa olish uchun WG47483341-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

ASOS: O'zbekiston Respublikasi Davlat xaridlari to'g'risida Qonuni.

Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi 2018-yil 26-maydagi 3016-sonli Nizom.

Markaz bosh yuriskonsulti



J.N.Rabbimov

2022-yil 28-mart

Table with columns: Инвентарный номер и код объекта, Наименование работ и затрат, характеристика оборудования и его масса, расхода ресурсов на единицу измерения, Единица измерения, Коэффициент использования, Цена, Сумма. Contains detailed construction cost breakdown.

Summary table with 3 columns: Description (e.g., ИТОГО: ЗАТРАТЫ ТРУДА РАБОЧНИХ-СТРОИТЕЛЕЙ), Unit (сум), and Total Amount (e.g., 13090221,00).

ЗАКАЗЧИК: ГАЛЛАРОЛ ТУМАН ХАК ТАБЛИМИ БУЛИМИ. Адрес: Галларол ш. Телефон: P/с100022860062097092100075130. МФО: 00014. БАНК: Ташкент ш. МББ. ИНН: 201030724. ИФУТ: 97600. Галларол туман Галишадим булими. Уш.Фс. Моделл вазириги ягона Гаина хисоб сарати. Дата: 23.02.2020. БАНК: Ташкент ш. МББ. МФО: 00014. ИНН: 201122919. Руководитель: А. Сутонов.

Подрядчик: "КОЗИМБЕК ГОЛДЕН СТРОЙ" М.Ч.Ж. Адрес: Галларол т. Телефон: 938244677. Расчетный счет: 2020800090562892001. ИНН: 306047782. МФО: 00142.



“TASDIQLAYMAN”
G‘allaorol tumani Xalq Talimi Bo‘limi
mudiri tanlov komissiyasi raisi:

A.Suyunov
2022 yil « 28 » 03

G‘allaorol tumani Xalq Talimi Bo‘limi (keyingi urinlarda buyurtmachi deb yuritiladi) uchun byudjet xisobidan G‘allaorol tumani Madaniyat QFY hududidagi № 56-sonli maktab binosini joriy ta‘mirlash ishlarini bajarish buyicha shartnomalar tuzish uchun ichki tanlov utkazish komissiyasining

MAJLIS BAYONNOMASI № 2

« » 28.03 2022 yil

Gallaorol shaxri

Gallaorol tumani Xalk Talimi Bulimi mudirining 2022 yil «10» yanvar №3-15 sonli buyrugi bilan tasdiklangan ichki tanlov komissiyasi azolari kuyidagi tartibda

QATNASHDILAR:

KOMISSIYA AZOLARI:

Gallaorol t. X.T.B.mudiri
tanlov komissiyasining raisi:-

A.Suyunov

Gallaorol t XTb bosh xisobchisi:

Q.To‘xtamishev

Gallaorol t XTb Qurilish buyicha
bosh mutaxasisi

I.Normatov

Gallaorol t XTb Qurilish buyicha
mutaxasisi

X.Mamatqulov

Gallaorol t XTb shartnomalar buyicha xisobchisi

D.Suyunova

Gallaorol t. X.T.B.ga karashli
xo‘jalik mudiri:

D.Qodirov

KUN TARTIBI:

1. G‘allaorol tumani Madaniyat QFY hududidagi № 56-sonli maktab binosini joriy tamirlashlarini sifatli bajarish obekt tan narxi va muddatlari buyicha eng makbul tanlov taklifini va golibini aniklash. **LOT №**
22 400 120 51 531 «12» MRPT 2022 yil **summasi**

2. G‘allaorol tumani Madaniyat QFY hududidagi № 56-sonli maktab binosini joriy tamirlash smeta-loyiha hujjatiariga asosan joriy tamirlash ishlari buyicha tanlovda ishtirok etish uchun kuyidagi pudratchi tashkilotlar ishtirok etish istagini bildirgan tashkilotlar:

1. «KOZIMBEK GOLDEN STROY» MChJ
- 2 «MURODOBOD CITY»MChJ
3. «SITY HOUSE BUILDINGS» MChJ

Talabgorlar tomonidan tanlovga takdim etilgan xujjatlar tugri rasmiylashtirilganligi, tuzilganligi va tulik xajmdatulik takdim etilganligi aniklandi. So‘ng G‘allaorol tumani Madaniyat QFY hududidagi № 56-sonli maktab binosini joriy tamirlash smeta-loyiha hujjatlariga asosan joriy tamirlash ishlarini bajarish buyicha talabgorlar tomonidan takdim etilgan takliflarni tanlov ishtirokchilariga ukib eshittirildi. shu munosabat bilan baxolash komissiyasi azolari talabgorlar takliflarini urganib chikayotganda, bu takliflar amalga oshirishi mumkinligini va asoslanganligiga etibor berishlari lozimligi takidlandi.

18.03.2022-yildagi №51531 sonli davlat buyurtmasi tomonidan rasmiylashtirilgan kundan davlat haridlarining elektron tizimida 2 ish kuni muhokama qilish mobaynida tanlash ishtirokchilari tomonidan e'tirozlar kelib tushmagan va harid komissiyasi tomonidan g'olib deb topilgan ishtirokchi o'rtasida shartnoma tuziladi.

Komissiya azolarining fikr-muloxazalarini eshitib va urganib chikkan xolda baxolash komissiyasi

QAROR QILADI:

Tanlov golibining taklifiga kura «KOZIMBEK GOLDEN STROY» MChJ tomonidan bajariladigan G'allaorol tumani Madaniyat QFY hududidagi № 56-sonli maktab binosini joriy tamirlash smeta-loyiha hujjatlariga asosan joriy tamirlash ishlarini bajarish buyicha qiymati joriy narxlarda 127 297 000 so'm, ishlarni tulik bajarish muddati 25 kun.

Tanlov golibining taklifiga kura «KOZIMBEK GOLDEN STROY» MChJ bilan № 56-sonli o'rta talim maktabini smeta-loyiha hujjatlariga asosan joriy tamirlash ishlarini bajarish buyicha pudrat shartnoma tuzilsin

KOMISSIYA AZOLARI:

Gallaorol t. X.T.B.mudiri
tanlov komissiyasining raisi:-

A.Suyunov

Gallaorol t XTB bosh xisobchisi:

Q.To'xtamishev

Gallaorol t XTB Qurilish buyicha
bosh mutaxasisi

I.Normatov

Gallaorol t XTB Qurilish buyicha
mutaxasisi

X.Mamatqulov

Gallaorol t XTB shartnomalar buyicha xisobchisi

D.Suyunova

Gallaorol t. X.T.B.ga karashli
xo'jalik mudiri:

D.Qodirov

**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 51531 на приобретение Жиззах вилоят
Ғаллаорол туман Маданият ҚФЙ худудидаги 56-мактаб биносини жорий таъмирлаш**

Способ проведения электронный

Дата 18.03.2022

Время рассмотрения 18.03.2022 13:49

Конкурсная комиссия Халк таълими булими (МБХ), (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	SUYUNOV AKBARALI ANVAROVICH	Ғаллаорол ХТБ Мудири	Ғаллаорол ХТБ
Член комиссии	YULDASHEV BUNYOD ISMAT O'G'LI	комиссия аъзоси	56- мактаб комиссия аъзоси
Член комиссии	NORMATOV ILHOM TOSHPO'LATOVICH	курилиш булими мутахассиси	Ғаллаорол туман ХТБ
Член комиссии	TO'XTAMISHEV QAHRAMON QO'NISHEVICH	главный бухгалтер	Ғаллаорол туман ХТБ
Член комиссии	QODIROV NE'MAT ALMATOVICH	комиссия аъзоси	56-мактаб комиссия аъзоси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 18.03.2022 года № лота 51531.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.техничко-квалификационной части: 85.00 / Весовой коэф. ценовой части: 15.00)

Мин. балл: 50

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту нежилых зданий
Подробное описание	Жиззах вилоят Ғаллаорол туман Маданият ҚФЙ худудидаги 56-мактаб биносини жорий таъмирлаш
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	127 297 000.00
Стартовая сумма	127 297 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Танловда иштирок этадиган корхонанинг солик ва бошка идоралардан карздорлиги мавжуд эмаслиги тугрисида маълумот.

Тип: Текстовое значение

Описание: Танловда иштирок этадиган корхонанинг солик ва бошка идоралардан карздорлиги мавжуд эмаслиги тугрисида маълумот.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО MURODOBOD CETI	25	120877777	23	Экспертная		
CITY HOUSE BUILDINGS MCHJ	25	120900000	23	Экспертная		
KOZIMBEK GOLDEN STROY XK	25	Солиқдан қарзи йуклиги тугрисидаги маълумотнома илова килинди	23	Экспертная		

Критерий №2 Танловда иштирок этадиган корхонанинг молиявий ҳолати тугрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Танловда иштирок этадиган корхонанинг молиявий ҳолати тугрисида маълумот

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО MURODOBOD CETI	25	120877777	16	Экспертная		
CITY HOUSE BUILDINGS MCHJ	25	120900000	16	Экспертная		
KOZIMBEK GOLDEN STROY XK	25	баланс	16	Экспертная		

Критерий №3 Танловда иштирок этадиган корхонанинг малакаси инобатга олинади

Тип: Текстовое значение

Описание: Танловда иштирок этадиган корхонанинг малакаси инобатга олинади

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО MURODOBOD CETI	25	120877777	7	Экспертная		
CITY HOUSE BUILDINGS MCHJ	25	120900000	7	Экспертная		
KOZIMBEK GOLDEN STROY XK	25	2020 - 2021 йилда бажарилган ишлар руйхати, техника шартномаси ва ҳужжатлари ҳамда техника расмлари илова килинади	23	Экспертная		

Критерий №4 Танловда иштирок этадиган корхонанинг доимий ишчилари тугрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Танловда иштирок этадиган корхонанинг доимий ишчилари тугрисида маълумот

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО MURODOBOD CETI	25	120877777	14	Экспертная		
CITY HOUSE BUILDINGS MCHJ	25	120900000	14	Экспертная		
KOZIMBEK GOLDEN STROY XK	25	Доимий малакали 16 нафар мутахассислари хамда 28 нафар мавсумий ишчилари	14	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
ООО MURODOBOD CETI	127 297 000.00	120 877 777.00	16.03.2022 14:07:58	15.00
CITY HOUSE BUILDINGS MCHJ	127 297 000.00	127 297 000.00	16.03.2022 15:13:49	14.24
KOZIMBEK GOLDEN STROY XK	127 297 000.00	125 297 000.00	17.03.2022 20:50:57	14.47

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
ООО MURODOBOD CETI	51	15	66
CITY HOUSE BUILDINGS MCHJ	51	14.24	65.24
KOZIMBEK GOLDEN STROY XK	64.6	14.47	79.07

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 51531 от 18.03.2022 года на приобретение Жиззах вилоят Фаллаорол туман Маданият ҚФЙ худудидаги 56-мактаб биносини жорий таъмирлаш определила победителем:

KOZIMBEK GOLDEN STROY XK
306047782

и резервный исполнитель: ООО MURODOBOD CETI (306458929)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Член комиссии	ТО'ХТАМИШОВ QAXRAMON QO'NISHOVICH	Согласен	
Член комиссии	QODIROV NE'MAT ALMATOVICH	Согласен	
Член комиссии	NARMATOV ILXOM TASHPO'LATOVICH	Согласен	

Председатель комиссии	SUYUNOV AKBARALI ANVAROVICH	Согласен	
-----------------------	-----------------------------	----------	--

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

Исполнительный директор	[Signature]
Заместитель исполнительного директора	[Signature]
Менеджер	[Signature]
Менеджер	[Signature]
Менеджер	[Signature]